



## **O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti o‘rtasida ilmiy va akademik hamkorlik sohasida**

### **O‘ZARO ANGLASHUV MEMORANDUMI**

2026-yil “8”-iyul

Toshkent shahri

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (keyingi o‘rinlarda “**Markaziy bank**” deb nomlanadi) hamda V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti (keyingi o‘rinlarda “**Matematika instituti**” deb nomlanadi), keyingi o‘rinlarda birgalikda “Tomonlar” deb nomlanadi, fundamental va amaliy matematika, iqtisodiy-matematik modellashtirish hamda ilmiy tadqiqotlar sohasida o‘zaro manfaatlarni hisobga olib, quyidagilarni o‘z ichiga olgan ushbu **Anglashuv Memorandumini** (keyingi o‘rinlarda “Memorandum”) tuzdilar:

#### **1. Memorandum maqsadi**

1.1. Ushbu Memorandumning maqsadi Tomonlar o‘rtasida teng huquqli va o‘zaro manfaatli asosda ilmiy tadqiqotlar, iqtisodiy-matematik modellashtirish, kadrlar tayyorlash va malaka oshirish sohalarida hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

1.2. Tomonlar ushbu Memorandumni amalga oshirish jarayonida o‘z faoliyatlarini O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiradilar.

#### **2. Hamkorlikning asosiy yo‘nalishlari**

Tomonlar hamkorlikni quyidagi asosiy yo‘nalishlarda amalga oshirishga kelishdilar:

2.1. Makroiqtisodiy tahlil, prognozlashtirish va iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish sohalarida qo‘shma ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish.

2.2. Markaziy bankda **Iqtisodiy-matematik amaliy laboratoriyani** tashkil etish hamda uning faoliyatiga Matematika instituti olimlari va Markaziy bank mutaxassislarini jalb qilish.

2.3. Axborot resurslari va ilmiy ma’lumotlar bazalaridan birgalikda foydalanish hamda o‘zaro manfaatli mavzularda qo‘shma nashrlarni tayyorlash.



2.4. Matematika instituti olimlari va mutaxassislarini Markaziy bankda amalga oshirilayotgan tahliliy tadqiqotlar, prognozlash ishlari hamda iqtisodiy jarayonlarni baholashga jalb qilish orqali ilmiy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish.

2.5. Inflyatsiya, pul-kredit siyosati, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi hamda makroiqtisodiy jarayonlarni baholash bo'yicha matematik modellar va metodologiyalarni birgalikda ishlab chiqish va takomillashtirish.

2.6. Markaziy bankning modellashtirish, prognozashtirish va tahliliy tadqiqotlar bilan shug'ullanuvchi xodimlari uchun quyidagi yo'nalishlarda maxsus seminarlar, treninglar va qisqa muddatli o'quv kurslarini tashkil etish:

- Differensial tenglamalar va ularning qo'llanmalari;
- Stoxastik tahlil;
- Dinamik tizimlar va ularning qo'llanmalari;
- Nochiziqli tizimlarni matematik modellashtirish;
- Hisoblash matematikasi;
- Iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish va prognozashtirish.

2.7. Qo'shma ilmiy-amaliy va ilmiy-uslubiy konferensiyalar, forumlar, seminarlar hamda boshqa tadbirlarni tashkil etish hamda Matematika instituti olimlari va yetakchi mutaxassislarini Markaziy bankka ekspert, maslahatchi va ma'ruzachi sifatida jalb qilish.

2.8. Matematika institutida tahsil olayotgan PhD talabalarining Markaziy bankda ilmiy-amaliyot o'tashini tashkil etish, shuningdek, kelgusida ularning ilmiy ixtisoslashuvi va tadqiqot yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda Markaziy bankka ishga jalb qilish imkoniyatlarini ko'rib chiqish.

2.9. Doktorantlar va yosh olimlarning dissertatsiya mavzularini Markaziy bank uchun dolzarb bo'lgan iqtisodiy modellashtirish, prognozashtirish va tahliliy tadqiqotlar yo'nalishlariga muvofiqlashtirish.

2.10. Sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili (Data Science), mashinali o'qitish va katta hajmdagi ma'lumotlarni tahlil qilish yo'nalishlarida hamkorlikni rivojlantirish.

2.11. Tomonlar uchun manfaatli bo'lgan boshqa yo'nalishlarda ilmiy-tadqiqot bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish.



### **3. O‘zaro hamkorlik shakllari**

- 3.1. Hamkorlik sohasiga oid ma'lumotlarni almashish.
- 3.2. Tomonlarning faoliyati hamda o‘zaro manfaatli masalalar bo‘yicha maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.
- 3.3. Memorandum maqsadlariga erishish uchun dasturlar va alohida kelishuvlarni ishlab chiqish.
- 3.4. Tomonlar o‘rtasidagi hamkorlik maqsadlariga erishish uchun shartnomalar (kelishuvlar) tuzish.
- 3.5. Xalqaro grantlar, ilmiy loyihalar va tadqiqot dasturlarida hamkorlik qilish.

### **4. Hamkorlikni tashkil etish**

4.1. Ushbu Memorandumga qo‘shimcha ravishda Tomonlar hamkorlikni rivojlantirish bo‘yicha dastur imzolashlari mumkin. Mazkur dastur Tomonlar tomonidan imzolanganidan so‘ng, Memorandumning ajralmas qismi sifatida qaraladi.

4.2. Tomonlar har yili Memorandumni amalga oshirish jarayonini ko‘rib chiqadilar va o‘zaro manfaatli hamkorlikning qo‘shimcha yo‘nalishlari va shakllarini belgilaydilar.

4.3 Ushbu Memorandum doirasida birgalikda yaratiladigan ilmiy maqolalar, tadqiqot natijalari, matematik modellar, metodologiyalar va boshqa intellektual faoliyat natijalaridan foydalanish, ularni e‘lon qilish hamda ularga bo‘lgan mualliflik va mulkiy huquqlar Tomonlar o‘rtasida oldindan kelishilgan tartibda, alohida kelishuvlar yoki shartnomalar asosida belgilanadi.

### **5. Axborotdan foydalanish va maxfiylik**

5.1. Tomonlar ushbu Memorandum doirasida o‘zaro almashiladigan ma'lumotlardan faqat hamkorlik maqsadlarida foydalanadilar hamda bunday ma'lumotlardan foydalanishda O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ichki tartib-qoidalariga rioya etadilar.

5.2. Ushbu Memorandum doirasida Tomonlardan biri tomonidan maxfiy deb belgilangan yoki o‘z mazmuniga ko‘ra maxfiy hisoblanadigan ma'lumotlar, shu jumladan xizmatga oid ma'lumotlar, statistik va tahliliy ma'lumotlar, tadqiqot



materiallari, modellar, metodologiyalar hamda boshqa axborotlar maxfiy ma'lumotlar hisoblanadi.

5.3. Tomonlar maxfiy ma'lumotlarni boshqa Tomonning oldindan yozma roziligisiz uchinchi shaxslarga oshkor qilmaslik, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda yoki boshqa ochiq manbalarda e'lon qilmaslik majburiyatini oladilar.

5.4. Ochiq manbalarda mavjud bo'lgan, qonunchilikka muvofiq oshkor etilishi lozim bo'lgan yoki Tomonlarning yozma kelishuvi asosida e'lon qilinadigan ma'lumotlar maxfiy ma'lumotlar jumlasiga kirmaydi.

5.5. Qo'shma tadqiqot natijalari, xulosalar, tahliliy materiallar va boshqa ilmiy ishlanmalarni e'lon qilish yoki uchinchi shaxslarga taqdim etish tartibi Tomonlarning oldindan yozma kelishuvi asosida belgilanadi.

## **6. Moliyalashtirish masalalari**

6.1. Ushbu Memorandum Tomonlar uchun bevosita moliyaviy majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi. Memorandum doirasida amalga oshiriladigan har qanday dastur, loyiha va rejalar Tomonlar tomonidan oldindan kelishib olinadi hamda ularning bajarilishi Tomonlarning moliyaviy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida o'zaro muhokama, kelishuv yoki shartnomalar asosida belgilanadi.

## **7. Amal qilish muddati**

7.1. Ushbu Memorandum 5 yil muddatga tuziladi va Tomonlar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi. Agar Memorandum muddati tugashidan kamida 30 (o'ttiz) taqvim kuni oldin Tomonlardan hech biri ushbu Memorandumni bekor qilish niyatini bildirmasa yoki yangi Memorandum bilan almashtirilmasa, Memorandum har yili avtomatik ravishda uzaytirilgan hisoblanadi.

7.2. Har bir Tomon ushbu Memorandumni bir tomonlama muddatidan oldin bekor qilish huquqiga ega bo'lib, buning uchun boshqa Tomonni bekor qilish rejalashtirilgan sanadan kamida 6 (olti) oy oldin yozma ravishda xabardor qilishi shart.

## **8. Yakuniy qoidalar**

8.1. Tomonlar o'rtasidagi hamkorlikning aniq shakllari alohida shartnomalar yoki kelishuvlar orqali belgilanadi va ular Tomonlar faoliyatining barcha jihatlarini bo'yicha o'zaro manfaatlarini inobatga oladi.



8.2. Tomonlar o'rtasidagi kelishmovchiliklar hamda ushbu Memorandum shart va qoidalarining turlicha talqin etilishi bilan bog'liq masalalar muzokaralar va maslahatlashuvlar yo'li bilan hal etiladi.

8.3. Ushbu Memorandumga o'zgartirishlar Tomonlarning yozma roziligi bilan, tegishli tarzda rasmiylashtirilgan va imzolangan holda kiritiladi.

8.4. Mazkur Memorandum o'zbek tilida ikki nusxada tuzilgan va imzolangan bo'lib, har bir Tomonda ushbu hujjatning bittadan asl nusxasi saqlanadi.

**O'zbekiston Respublikasi  
Markaziy banki raisi**

**T.A. Ishmetov**

**V.I. Romanovskiy nomidagi  
Matematika instituti direktori**

**Sh.A. Ayupov**